

OLIV TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARINING PSIXOLOGIK TALQINI

Abdullaeva Ranajon Matyoqubovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi,

matyoqubovna67@mail.ru

Annotatsiya: maqolada hayot sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Ulardan ta'lim, oila va ish(mehnat) alohida ajratib olingan holda talabalar o'qish faoliyati davomida o'rganilgan. Asosan, o'z hayotidan mamnun yashash bo'yicha tadqiqot natijalari asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hayot sifati, ta'lim sifati, bilim sifati, samaradorlik, mustaqil bilim olish, professor-o'qituvchi sifati, o'quv dasturlarining sifati, ta'lim oluvchilar sifati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абдуллаева Ранажон Матякубовна-доцент Ташкентского
государственного педагогического университета имени

Низами, кандидат психологических наук,

matyoqubovna67@mail.ru

Аннотация: В статье описаны и интерпретированы показатели, определяющие качество жизни. Представлены методы повышения качества высшего образования и рекомендации, основанные на результатах исследований. Разработаны предложения для того, чтобы студенты жили счастливо в своей жизни в будущем.

Ключевые слова: качество жизни, качество образования, качество знаний, эффективность, самостоятельное обучение, качество профессоров и преподавателей, качество учебных программ, качество обучающихся.

PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF HIGHER EDUCATION QUALITY INDICATORS

Abdullayeva Ranazhon Matyakubovna-Associate professor of
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,
Candidate of Psychological Sciences,
matyoqubovna67@mail.ru

Abstract: The article describes and interprets the indicators that determine the quality of life. Methods of improving the quality of higher education and recommendations based on research results are presented. Proposals have been developed to ensure that students live happily in their lives in the future.

Keywords: quality of life, quality of education, quality of knowledge, efficiency, independent learning, quality of professors and teachers, quality of educational programs, quality of students.

KIRISH. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo‘ylab “Sifat inqilobi” yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e’tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi. Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo‘lib, ularni qo‘yilgan talablar va o‘z vazifalariga to‘liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste’molchilarning talablari bilan aniqlanadi. Sifatga e’tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. XX asrning 60-yillari - bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil - mahsulot sifati.

2. XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan shlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o‘tish bosqichi.

3. XX asrning 80-yillari- sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o‘tish davri.

4. XX asrning 90-yillaridan boshlab ta’lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati - asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Hayot sifatini baholashda uchta yondashuv mavjud:

1. Umuman olganda, bu inson hayotining turli tomonlarini baholash, nafaqat uning sog'ligi, balki yashash sharoitlari bilan ham bog'liq, kasbiy xususiyatlar, ish, o'qish, uy muhiti, atrof-muhit, ijtimoiy sharoitlar.

2. Tibbiy ma'noda, bu holat bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar shaxsning sog'lig'i (vaqtinchalik ishga layoqatsizlik ko'rsatkichlari, nogironlik va boshqalar).

3. "Shaxsan hayot sifati" atamasi jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatlarida o'zining farovonligini sub'ektiv baholash ma'nosini anglatadi.

Hozirgi kunda mahsulot sifati, texnika va texnologiya sifati, sifatni boshqarish tizimi sifati kabi atamalar o'z o'rnini hayot sifati tushunchasiga bermoqda. Hayot sifatining asosiy mezoni - ta'lim va tarbiya sifatidir. [1]

Nima uchun ta'lim sifati insoniyatning barcha hayotiy-muhim faoliyatlariga ta'sir etadi? **Birinchi**dan, insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham global o'zaro bog'liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta'sir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va ma'naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to'g'ri va sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkin. O'qitish va ta'lim-tarbiya berishdan maqsad, insonni hayotga tayyorlash. Biz avval o'qitamiz, keyin amalda o'rgatamiz. Hayot esa avval amalda sinab ko'rib, keyin o'qitadi.[3]

Ikkinchidan, ta'limning asosiy yo'nalishi tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiya o'ta muhim, o'ta murakkab va o'ta dolzarb masala bo'lib kelgan va bo'lib qoladi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobidagi "Tarbiyaning zamoni" bobida shunday jumlar bor. "Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur? -degan savol keladur. Bu savolga "**birinchi** - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. **Ikkinchi** - maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir"- deb javob bersak. Aynan ana shu maktab va madrasa tarbiyasini avval ham, hozir ham muallim-pedagoglar amalga oshirib kelishgan. Bizningcha, tarbiyada atrof-muhit ta'siri ham yetakchi o'rinni egallamoqda. Bolalar ko'proq eshitganini yoki o'qiganini emas, balki

ko‘rganini qilishga harakat qilishadi. Xo‘sh, bizning o‘zimiz bolalarga tarbiya bobida o‘rnak bo‘la olamizmi? Bolalar bizdan nimalarni o‘rganishmoqda? Global Internet tizimidagi ma‘lumotlar tarbiya bobida qanday o‘rin egallamoqda? Internetga ma‘lumotlarni, ya‘ni tarbiyaga salbiy ta‘sir etuvchi axborotlarni bolalar joylashtirmoqdam yoki kattalar? Balki, biz tarbiyani va ta‘limni avvalo o‘zimizdan boshlashimiz kerakdir? Demak, bir so‘z bilan aytish mumkinki, ta‘lim-tarbiya sifatli bo‘lishi uchun biz o‘zimiz(pedagoglar) sifatli ta‘lim berishga munosib bo‘lishimiz zarurdir.[2]

Uchinchidan, insoniyatning barcha hayotiy muhim munosabatlari (siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va b.) - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta‘sirga bog‘liq holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ta‘lim sifatiga bog‘liq holda ushbu munosabatlar darajasi va albatta siyosiy iqtisodiy munosabatlar ham o‘zgaradi. Yuqorida keltirilganlardan xulosalash mumkinki, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta‘lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo‘lmaydi. Barcha muammolarni faqatgina yuksak darajadagi ong, to‘g‘ri tafakkur va beqiyos bilim, yuksak ma‘naviyat va ma‘rifat yo‘li bilangina hal etish mumkin. Buning yechimi ta‘lim-tarbiyaga e‘tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko‘proq mablag‘ ajratish orqali ta‘lim sifatini yuksaltirish bilan hal etilishi mumkin. Inson har kuni va har daqiqada o‘z qornini to‘ydirishni, yaxshi kiyinishni va boshqa moddiy ta‘minotlarini qanchalik o‘ylasa va unga harakat qilsa, o‘zining ma‘rifiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishni undanda o‘n karra ko‘proq o‘ylashi va harakat qilmog‘i lozim. Bu faqat ta‘lim olish orqaligina amalga oshadi.

Lekin, ta‘lim sohasidagi islohotlarning yanada ijobiyliги pedagoglarning globallashtirish va axborotlashgan jamiyat ta‘lim tizimi mazmun-mohiyatini nechog‘lik tushunib yetishlariga va qanchalik astoydil bajarishlariga ham bog‘liqdir. Hozirgi globallashtirish va axborotlashgan jamiyat ta‘lim tizimida ta‘lim-tarbiya sifatini qanday ta‘minlash, zamon ruhiga mos holda qanday o‘zgartirish mumkin? Birinchi navbatda global Internet va masofaviy ta‘lim imkoniyatlari hamda xalqaro ta‘lim standartlari talablarini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya sifatini ta‘minlashning butunlay yangi tizimini ishlab chiqish zarur. [5]

Hozirgi kundagi ta‘lim mazmuni ko‘proq ishlab chiqarishda yuksak iqtisodiy samara olish, insonning shaxsiy manfaatlarini mumkin qadar to‘liqroq qondirish masalalariga qaratilgan, ya‘ni har qanday bilim zaminida yuqori iqtisodiy samara va foyda olish yo‘llarini izlash yotmoqda. Biz bolalarimizni yuksak ma‘naviy ruhda

tarbiyalashga har qancha harakat qilsakda, manfaatdorlik negizidagi muhit to‘sqinlik qilishi mumkin. Har bir ota-ona o‘z farzandini hech kimdan kam bo‘lmasligini istaydi, oliy ma‘lumot olishini va yaxshigina daromadli ishga joylashishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Lekin, aslida ta‘lim-tarbiya jarayoni inson ma‘naviyatini yuksak darajada shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilmog‘i lozim.[4]

Ta‘lim sifati - ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta‘lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta‘lim sifati ta‘lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarga ta‘lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta‘minlovchi ta‘lim mazmuni, o‘qitish shakli va uslublari, material texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi. Ta‘lim sifati -inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo‘ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Oliy ta‘limda ta‘lim sifati - ta‘limning maqsad va vazifalari hamda ta‘lim tizimining aniq standartlari, ta‘lim muassasalari, o‘quv dasturlari va fanlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali, ko‘p darajali dinamik tushunchadir. [3]

Talaba uchun qancha sharoit yaratilmasin, unga yetarli bilim berilmasa, o‘qituvchining bilimi talabani qoniqtirmasa, uning fanga bo‘lgan qiziqishi susayadi, iqtidor alangasi so‘nadi. Shunday ekan, oliy ta‘lim islohotlarining bugungi bosqichida e‘tiborimiz markazida turishi lozim bo‘lgan eng muhim yo‘nalish - ta‘lim sifatini yaxshilashning shartlaridan biri bo‘lgan pedagog kadrlarni tanlash tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir.[4]

Bilim sifati - o‘quv jarayonini tugatgandan so‘ng olingan bilimlarning fundamentalligi, yuqoriligi va ish jarayonida qanchalik kerakliligi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ta‘lim-tarbiya sifati o‘ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar aynan ta‘lim sifati darajasiga bog‘liq holda rivojlanadi. Qolaversa, ta‘lim sifati davlat va jamiyat taqdirini, butun insoniyat taqdirini belgilab beradi. Shu sababi ham ta‘lim sifatini -hayot sifati deb izohlash xato bo‘lmaydi. “Ta‘lim sifati” atamasi quyidagi omillarga bog‘liq holda turlicha ahamiyat kasb etadi: oliy ta‘lim ishtirokchilarining manfaatlari; kirish ma‘lumotlari, ta‘lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma‘lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o‘zaro

nisbati; baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi; oliy ta'limning tarixiy rivojlanish davri.

Shuningdek, ta'lim sifati atamasi quyidagi turli darajadagi aniqlanishlarga ham ega: sifat - eng yuqori ko'rsatkich sifatida; sifat - maqsadga to'liq erishilgan faoliyat shaklida; sifat - yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida.

Yuqorida keltirilgan «ta'lim sifati» to'g'risidagi aniqlanishlar ta'lim sohasidagi islohotlarning tarixiy davriga bog'liq holda o'z afzalliklari va kamchiliklariga egadir. Ta'lim sifati **absolyut** va **nisbiy** tushuncha sifatida qaralishi ham mumkin. Ta'lim sifatining **absolyut tushunchasida** ta'lim muassasasining statusi, mavqei va ustunligini aks etishi nazarda tutiladi. Bunday ideal tushuncha ta'lim muassasasi imidjining rivojlanishi va mustahkamlanishiga sharoit yaratadi va ta'lim sifati ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori darajadagi ta'lim standartiga intilishini ifodalaydi. Ta'lim sifati **nisbiy tushuncha sifatida** ham qaralishi mumkin. Bunda sifat ta'lim xizmatning asosiy atributi (ajralmas qismi, asosiy xususiyati) deb hisoblanmaydi va ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartiga mos kelishi bilan baholanadi. Shu sababli ta'lim sifati nisbiy tushuncha sifatida ikki xil ma'noda belgilanishi mumkin: a) ta'lim standartiga mosligi; b) ta'lim xizmati iste'molchilarining rasmiy talablariga mos kelishi. [4]

Birinchi tushuncha ishlab chiqaruvchi (ta'lim muassasasi) nuqtai nazaridan sifatni belgilasa, ikkinchisi esa iste'molchi, ya'ni ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan sifatni baholaydi. Lekin, ko'pincha ta'lim xizmati sohasi va iste'molchilarning manfaatlari va sifat tushunchasi yuzasidan qarashlari bir-biriga to'liq mos kelmaydi. Shu sababli ta'lim muassasalarida ta'lim sifati muammosiga ikki xil nuqtai nazardan qarashlari talab etiladi:

-ta'lim muassasasi nuqtai nazaridan. Bunda - ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartiga mosligi bilan belgilanadi.

- ta'lim xizmati iste'molchilari nuqtai nazaridan. Bunda - ta'lim xizmati iste'molchilari talablarini qondirilish darajasi orqali baholanadi.

Ta'lim sifatiga baho berishda ta'lim samaradorligi tushunchasini ham e'tiborga olish talab etiladi. Sifat - olingan natijaning maqsadga nisbati (yoki teskarisi), samaradorlik- olingan natijaning xarajatlarga nisbati bilan baholanadi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik

ko‘p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, **hayot sifati shunchalik yuqori** bo‘ladi.

Ta‘lim sifatini baholashda quyidagi ketma-ketlikdagi tashkil etuvchilar hisobga olinishi talab etiladi: bilim sohibi, tarqatuvchisi; bilim uzatuvchilari; bilimni uzatish texnologiyasi; bilim oluvchi; bilimni mustahkamlik darajasi; olingan bilimlarni zarurligi, kerakligi; yangi bilimlar olish zarurligi va imkoniyati.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta‘lim sifatini aniqlashda sifat ko‘rsatkichlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati; oliy ta‘lim muassasasining material-texnik bazasi; professor-o‘qituvchilar tarkibining asoslanganligi; o‘quv dasturlarining sifati; talabalar sifati; infratuzilma sifati; bilim sifati; rahbariyatning innovatsiya faolligi; innovatsion jarayonlarni tadbiiq etilishi; bitiruvchilarga talab; bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi; bitiruvchilarning yutuqlari.

Ta‘lim jarayonida asosiy e‘tiborni o‘qituvchi egallaydi. Shu sababli o‘qituvchi sifati, majmual tushuncha bo‘lib, u asosan quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: kompetentlik darajasi – aniq fan va amaliyot sohasi bo‘yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lishi; o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi; kuzatuvchanlik - o‘quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg‘ab olish; tashqi va ichki muhit bilan aloqa o‘rnatish qobiliyati; o‘z sohasi bo‘yicha tanilganligi, mavqei; ilmiy - tadqiqot sohasidagi faolligi; ilmiy maktabining mavjudligi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta‘lim mazmuni va sifatini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Ta‘lim muassasalarining ta‘lim-tarbiya jarayoniga davlat ta‘lim standartlari (DTS) va davlat talablari joriy etildi. Hozirgi kunda mehnat bozori talablariga mos holda kadrlar tayyorlash tizimi shaklan va mazmunan barqarorlashib, jahon ta‘lim tizimi talablari darajasiga ko‘tarilmoqda.¹

Hozirgi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta‘lim tizimiga oid 10 dan ortiq farmonlari va qator farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 50 dan ortiq qaror va farmoyishlari, shuningdek Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan me‘yoriy - uslubiy hujjatlar qabul qilindi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 maydagi 258-son qarori.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’minlash va sifatni nazorat qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 maydagi 258-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (DTM) tashkil etildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Unson hayoti sifatini yaxshilash, yashash sharoitlarini zamonga va ehtiyojlarga mos-xos tarzda ijobiy tomonga o‘zgartirish bo‘yicha mamlakatimiz olimlaridan M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G‘.G‘oziyev, Z.T.Nishonova, Sh.R.Baratov, N.S.Safayev, R.S.Samarov, P.S.Ergashev, B.R.Qodirov, F.A.Akramova, B.M.Umarov, R.A.Abdurasulov, M.A.Utepberganov, Z.A.Rasulova, M.M.Mamatov, O.E.Xayitov, N.G.Kamilova, N.A.Sog‘inov, E.N.Sattarov, M.X.Fayziyeva, F.R.Ro‘ziqulov, R.X.Dushanov, S.N.Jo‘rayeva, M.A.Axmedova va boshqalar ilmiy tadqiq etishgan. Ularning tadqiqot ishlarida bu omillar sifatida oilaviy munosabatlar, kasbiy faoliyat, ta’lim samaradorligi, pedagog shaxsi va uning imiji, ota-ona va farzand munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, shaxs, rahbarlik kabilar tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilgan. Hayot sifatini oshirishning o‘ziga xos jihatlari bir-butun yaxlit holatida, ta’lim, oila, ish (mehnat) hamda salomatlikka bog‘liq jihatlari birgalikda o‘rganilmagandir.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Hayot sifati bo‘yicha faol tadqiqotlar XX-asrning ikkinchi yarmida Qo‘shma Shtatlarda boshlangan. 1961 yilda BMT ekspertlari hayot sifati ko‘rsatkichlarining birinchi nomenklaturalaridan birini taklif qildilar. Ba 1962 yildan 1973 yilgacha Qo‘shma Shtatlar hayotning ko‘plab sohalarida sifatni aniqlashga yordam beradigan "ijtimoiy ko‘rsatkichlar" tizimini ishlab chiqdi. U yetti blokdan iborat edi: sog‘liqni saqlash, jamoat xavfsizligi, ta‘lim, mehnat, daromad, uy-joy, dam olish, o‘z navbatida 167 ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan.

So‘nggi yillarda ko‘pchilik hayot sifati bilan bog‘liq muammolarga qiziqish bildirmoqda. Mutaxassislar sog‘liqni saqlash, ta‘lim, demografiya, bozor tadqiqotlari va boshqalarni o‘rganish bilan bog‘liq muammoning turli tomonlarini tadqiq qilishmoqda.

Biz ham hayot sifatini oshirishning ijtimoiy-psixologik omillari va ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida oliy ta‘lim talabalarida o‘z tadqiqotimizni olib bordik. Tadqiqotimizda “Turmush darajasi”, “Farovonlik darajasi” va “Hayot sifati” tushunchalari orasidagi farq belgilab olindi va tadqiqot predmeti sifatida “Hayot sifatini belgilovchi ijtimoiy psixologik ko‘rsatkichlari (“ta‘lim”, “oila”, “ish”) va

indikatorlari (shaxs hayot strategiyasi, uni belgilovchi terminal qadriyatlar, lokus nazorat, o'ziga bo'lgan munosabat) belgilab olingan.

Tahlil va natijalar. O'qish va bilim olish- insonning boshqa kundalik ehtiyojlari (yuvinish, kiyinish, ovqatlanish va b.) kabi har bir kishining ongli ravishda kundalik ehtiyojiga aylanmog'i kerak. Ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng foydalanish hisoblanadi. Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini izchil rivojlanishi ta'lim tizimini butun jahon ta'lim muhiti talablariga javob berishi zarurligini taqoza etmoqda. Ta'limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta'limning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini xalqaro ta'lim jarayoniga aylanishiga asos bo'lmoqda. XX asr ilm-fan rivoji va yuksak texnologiyalar asri deb e'tirof etilgan bo'lsa, XXI asr axborot texnologiyalari asridir. XX asr boshlarida o'qish va yozishni bilmaydigan kishi jamiyatda qanday o'rin tutgan va hayot haqida qanday tafakkurda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini bilmaydigan kishi xuddi shunday darajadadir. [2]

Tadqiqotda hayot sifatini (HS) o'lchashga qaratilgan “SF-36 (Health Status Survey) so'rovnomasi”, M.O.Mdivani va P.B.Kodesslarning “Shaxs hayotiy strategiyasi” metodikasi, D.A.Leont'yevning “Shaxs hayot mazmunini mo'ljalga olish” metodikasi, Sh.Shvartsning “Qadriyatlarni individual diagnostika qilish” metodikasi va muallif tomonidan tayyorlangan IPS (ijtimoiy-psixologik so'rovnoma)dan foydalanildi.

Biz o'z tadqiqotimizda o'qiydigan, o'qib ishlaydigan, ishlaydigan buydoq respondentlarning hayot strategiyasi ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Natijalar tahliliga asosan respondentlar o'z kelajagini aniq tasavvur qila oladi va o'z oldiga hayotiy maqsadlar qo'ya oladi. Mas'uliyatli vazifalarni bajarishda katta ishonch bor, ularning bajarilishiga ichki qiyinchiliklar (tashvish, qat'iyatsizlik, yomon kayfiyat) to'sqinlik qilish ehtimoli past, bu ham hayotiy maqsadlarni aniqroq belgilash ehtimolini oshiradi. Bu respondentlar o'z oldiga maqsad qo'ygan holda, tashqi yordam yoki qoralash mavjudligi yoki yo'qligidan qat'i nazar, har qanday holatda ham unga erishishga intiladi, ya'ni ular faqat kerakli natija haqidagi o'zlarining ichki rivojlangan g'oyalari bilan harakat qilishadi. Ular o'zlarining hayot strategiyasini mustaqil ravishda tuzadilar va hayot nazorat ostida ekanligiga aminlar. Bundan tashqari, bunday shaxslar o'zlarining hayotni boshqarish va hayot strategiyasini

kerakli yo‘nalishga yo‘naltirish qobiliyatiga ishonishlari bilan ajralib turadi. Ehtimol, bunday ishonchga boshqalarning fikridan mustaqillik va istalgan maqsadga erishishda natijalarga aniq e‘tibor berish ham yordam beradi. Haqiqiy hayot sharoitida yuqori moddiy farovonlik qadriyatlari amalga oshiriladi; boshqa odamlarga yordam va rahm-shafqat; sevgi, go‘zallikni izlash va undan zavqlanish qadriyatlari amalga oshirilmaydi; dunyoda, tabiatda, insonda yangi narsalarni o‘rganish; odamlarning yuqori ijtimoiy mavqei va boshqaruvi; odamlarni tan olish va hurmat qilish, boshqalarga ta‘sir qilish; jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faollik kabi qadriyatlar hukm suradi. Shunday qilib, tadqiqot muhim xulosani shakllantirishga imkon beradi: hayot strategiyasining xususiyatlari aniqlangan va ular qadriyatlar turlarining xususiyatlari bilan birlashtirilgan.[6]

Buydoqlik hayot sifati ko‘rsatkichi sifatida aniq indikatorlarga ega ekanligi aniqlandi. Ya‘ni buydoq respondent ko‘proq o‘z harakatini moddiy mustaqillikka, o‘zini o‘zi namoyon qilishiga qaratsa ham ijtimoiy faolligi oila qurish va oilaga foyda keltirishga qaratilgan.

Xulosa va takliflar. Har bir inson oila muhitidayoq hayotiy strategiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirishga o‘rgatilishi lozim. Aksariyat talabalarda mustaqil ravishda o‘z hayotiy strategiyalarini qat‘iy belgilash ko‘nikmasining sust ekanligi ko‘rindi. M.O.Mdivani va P.B.Kodess tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxs hayotiy strategiyasi” metodikasida ko‘rsatilgan 16 ta hayotiy maqsadlar ya‘ni kasb-hunarga ega bo‘lish; dunyo bo‘ylab sayoxat qilish; hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lish; boy bo‘lish; haqiqiy muhabbatni topish; yaxshi ta‘lim olish; qiziqarli muloqot davrasiga ega bo‘lish; ekologiya haqida qayg‘urish; shaxs sifatida rivojlanish; o‘z sog‘ligi haqida qayg‘urish; boshqa insonlar uchun yaxshilik qilish; yaxshi oilaga ega bo‘lish; mashhur bo‘lish; ma‘naviy-axloqiy hayot olib borish; yaxshi do‘stlarga ega bo‘lish; jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shish kabi maqsadlarni real amalga oshirish masalalarida aksariyat birinchi bosqich talabalarida ishonchsizlik holatlari ko‘proq kuzatildi. Bu esa talabalarga o‘z maqsadlarini to‘g‘ri yo‘naltirish ko‘nikmalarini shakllantirish malakalari yetishmayotganidan dalolatdir. Buning uchun fan o‘qituvchilari va guruh tyutorlari, mutaxassislar va psixologlar, to‘garak faollari va ta‘lim mutasaddilari hamjihatlikda talabalar bilan individual ishlashi, ularning motivlari, maqsadlari va kelajak tasavvurlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga ko‘maklashishlari lozim. [5]

Sh.Shvartsning “Qadriyatlarni individual diagnostika qilish” metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar esa talabalarda metodikada ko‘rsatilgan 58 ta qadriyatlardan eng yuqori ko‘rsatkichlar sifatida- ijod; maqsad sari intilish; qarashlarning kengligi; ta’sir ko‘rsata olishlik; maqsadga yo‘nalganlik; kompetentlik, professionalizm; intellekt; hayotdan xursandlik, muvaffaqiyat kabi qadriyatlarni ko‘rsatishgan. Bu esa talabalardagi hayotga bo‘lgan ishtiyoqning yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek mazkur metodikaga qo‘shimcha tarzda “Shaxsga xos xususiyatlarni aniqlash” G.Yu.Ayzenk testini ham o‘tkazganimizda ma’lum bo‘ldiki, aksariyat ekstrovert (xolerik va sangvinik temperament) tipdagilar ko‘proq hayotdan zavqlanib yashashga moyil bo‘lishar ekan. Introvert (melanxolik va flegmatik temperament) tipdagilarda esa hayotdan qanoatlanmaslik xolatlari kuzatildi. Ulardagi eng quyi ballar ushbu qadriyatlarga berildi, ya’ni - o‘z-o‘ziga hurmat; ichki olamning yopiqligi; mustaqil bo‘la olish; sadoqatlilik; hayotning qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish kabi qadriyatlarni ko‘rsatishgan.[6]

Talabalar yuqori bosqichga o‘tgach hayotiy strategiyalarni aniq ifodalay olishlari bilan ajralib turishadi. Hatto yaxshi oilaga ega bo‘lish; yaxshi ta’lim olish hamda shaxs sifatida rivojlanish kabi ko‘rsatkichlarda ham aniqliklar kuzatildi. Barcha ko‘rsatkichlarda ko‘proq real hayotiy mo‘ljal bilan baholash ustunligi kuzatildi.

Umumiy tarzda talaba qanchalik barvaqt o‘z hayotiy strategiyalarini to‘g‘ri amalga oshirishni o‘rgansa, shunchalik hayotining sifati oshishiga imkon yaratiladi. Bu esa kelajakda hayotlaridan mamnun holatda o‘zlaridan qanoatlanib yashashga imkoniyat demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to‘g‘risida” ги Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 maydagi 258-son qarori.
2. Raximov O.D. Ta’lim sifati va hayot sifati. //O‘quv uslubiy qo‘llanma, 2015y., 8- b.
3. Abdullaeva R.M. Ta’lim va xayot sifatining kasb tanlashga bog‘liqligi. Maktab va hayot. Ilmiy metodik jurnal. №3 (175) / 2023. 11-13 b.
4. Khimmataliev D.O., Khakimova M. F., Hkamidov J., Abdullaeva R.M. Improving the professional competence of professional teachers. Journal of Critical Reviews, Vol.7, ISSUE, 11, 2020, 1131-1137 p.

5. Abdullaeva R.M. Requirements for choosing a profession. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)

DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150-2153.

6. Abdullaeva R.M. Kasbiy faoliyatning hayot sifatini oshirishga ta'siri. Ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonida xulq-atvor shakllanishining pedagogik va psixologik jihatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2023 yil 21 fevral. 147-151 b.



Research Science and
Innovation House

